

TO‘QSONBOSTI USULIDA EKIN EKISH VA UNING AFZALLIKLARI

*Rashidov Quvonchbek Turg‘unboy o‘g‘li
Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*

*Karimboyeva Sevara Rashid qizi
Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*

*Bekchanov Azamat Shuxrat o‘g‘li
Toshkent davlat agrar universiteti talabasi*

Annotatsiya: To‘qsonbosti usulida ekin ekish va uning afzalliklari. Bu usul orqali axoli sifatlari sabzovot ekinlari bn ta‘minlanadi. Takroriy ekinlardan bo‘shagan yerlardan to‘qsonbosti usuli orqali yana ekin ekiladi. Kech kuzda ekilgan ekinlar urug‘i qishda yerosti qolib erta bahorda o‘sib chiqadi va tez rivojlanadi. To‘qsonbosti usulida ekin ekish muddati noyabr oyini ikkinchi o’n kunligidan dekabr oyini birinchi o’n kunligi oxirlarigacha, janubiiy viloyatlarda esa 20 dekabrgacha o’tkazish tavsiya etiladi.

Kalit so‘zlar: To‘qsonbosti, usul, ekin, sabzovotlar, takroriy ekinlar, Qishloq xo‘jaligi, o‘g‘it.

Ma’lumki, bu usulni ota-bobolarimiz qadimdan qo’llab kelishgan. Odatda, qish bizning o‘lkalarda 15 dekabrdan boshlanadi va to 15 martga qadar rosa uch oy—90 kun davom etadi. To qish kirgunigacha yerga qadalgan urug‘ 90 kun tuproq ostida turadi, erta bahorda kun isishi bilan esa darrov unib chiqadi. Dono xalqimiz bu jarayonni obrazli qilib, “90 kunni bosib o‘tdi” ma’nosida shunday atagan. To‘qsonbosti erta ko‘klam, ilikuzdi kezlarida aholi dasturxonini sabzavot va servitamin ko‘katlar bilan to‘ldirish, pirovard natijada bozorlarda narx-navo barqarorligining omili. Shuningdek, Respublikamiz Prezidentining joriy yil 15-oktyabrdagi “Sarimsoqpiyoz hamda to‘qsonbosti usulida sabzavot mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishni ko‘paytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida sarimsoqpiyoz yetishtirish va eksport qilish hajmlarini ko‘paytirishning o‘ta maqbul manbai sifatida ham tavsiya etilgan.

Respublikamiz aholisini ertagi sabzavot mahsulotlariga bo‘lgan talabini to‘liq qondirish maqsadida, hosildan bo‘shagan maydonga sovuqqa chidamli sabzavot ekinlaridan – sabzi, piyoz, osh lavlagi, ko‘kat sabzavotlardan esa kashnich, petrushka, selbderey, salat kabilarni to‘qsonbosti muddatida ekib, etishtirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu usulni amalda qo’llanishi erta bahorda arzon va sifatli sabzavot etishtirish imkonini beradi. Hosildan bo‘shagan maydonlardan kelgusi yilda hosil etishtirish ushbu maydonlarni sifatli haydab, egat olib qo‘yishga bog‘liq. Aks holda erta bahorda er etilishi qiyin bo‘lsa, ekish muddati cho‘zilib ketadi. Yer haydashni imkon bo‘lsa, unda o’simlik qoldiqlarini oddiy setkalik yoki zigzag boronalar yordamida maydon tashqarisiga chiqarib tashlash, keyin maydonlarning notekis qismini P-4 yoki PA-3 rusumli moslamalar bilan tekislash lozim. Tekislangan maydonlarga ekin turi uchun tavsiya etilgan fosfor hamda kaliy o‘g‘itlari meyorining 70 foizi va har gettar maydonga 20–25 tonnadan mahalliy o‘g‘itni sepib chiqish, so‘ngra PN-3–35 rusumli plug bilan 28–30 sm chuqurlikda haydash, sho‘rlangan yoki begona o‘t ko‘p bo‘lgan maydonlarni esa PYa-4-35 rusumli plug bilan 35–38 sm chuqurlikda ikki qatlamlı

haydash tavsiya etiladi. Shudgorlanib ekishga puxta tayyorlangan maydonga sovuqqa chidamli sabzavotlardan sabzi, piyoz, osh lavlagi, kashnich, petrushka, salat kabi o'simliklarni to'qsonbosti usulida ekish ko'klamda ko'plab ertagi sabzavot mahsulotlari etishtirish imkoniyatini yaratadi. Zero, mazkur usulda ekilgan sabzavot ekinlarini urug'i erta ko'klamda erdan juda barvaqt unib chiqadi va tez o'sib-rivojlanadi. Ekilgan urug'lar egatlari ustiga chirigan mahalliy o'g'itlar yoki qipiqlash bilan mulchalash yoki pylonka yopish zarur. Shunda sabzi, piyoz, osh lavlagi hamda ko'kat sabzavot urug'lari tez unib chiqadi va jadal o'sib-rivojlanadi. Ushbu ekinlarni erta bahorda ekishga qaraganda hosili 28–35 kungacha barvaqt etilib, 15–20 foiz ko'proq hosil olish imkonii tug'iladi. Respublikamizning markaziy qismida joylashgan viloyatlardagi sabzavotchilik xo'jaliklarida yuqorida takidlangan sabzavot urug'ini to'qsonbosti usulida ekish tadbirini noyabr oyini ikkinchi o'n kunligidan dekabr oyini birinchi o'n kunligi oxirlarigacha, janubiiy viloyatlarda esa 20 dekabrgacha o'tkazish tavsiya etiladi. To'qsonbosti ekish muddatlarida toza navli, birinchi sinf urug'laridan foydalanish lozim. Yuqori hosil olish uchun sabzining Shantane, Nantskaya, Ziynatli, Farovon, piyozning Ispanskiy–313, Istiqbol va Zafar navlarini; osh lavlagining Bordo–237, Diyor, Yagona; ukropning Uzbekskiy–243, Orzu; petrushkaning Saxarnaya va Nilufar kabi sovuqqa chidamli navlari urug'ini ekish maqsadga muvofikdir. Sabzavot urug'larini to'qsonbosti usulida yirik maydonlarga ekishda SON-2,8A rusumli moslama bilan lenta shaklida, qo'sh qatorlab (50+20 sm) yoki ushbu moslamada sochma usulda ekish mumkin. Kichik maydonlarga esa urug'larni qo'lda sepib olinib, ketidan haskashlab chiqish kerak. Ushbu ekish muddatida sabzavot urug'larini ekish me'yori bahorgi muddatda ekishga qaraganda bir oz ko'proq bo'lib, har 1 ga maydon hisobiga sabzi urug'i 8 kg; piyoz urug'i 16 kg; osh lavlagi 20 kg; kashnich, petrushka urug'lari 10 kg. gacha sarflanadi. Urug'larni ekish moslamalar yordamida amalga oshirilganda ularning ekish chuqurligi 2–3 sm. dan oshmasligi lozim. Ekish bilan birga sug'orish egatlari tortib chiqilsa nur ustiga nur bo'ladi. Janubiy hududlarda oqbosh karamdan juda erta va yuqori hosil olish uchun urug'lar ko'chatxonaga noyabrning birinchi o'n kunligida sepilib, tayyor bo'lgan ko'chatlar 25–30-dekabrda pylonka bilan qoplangan dugalar ostiga ekiladi.

To'qsonbosti usulida ekin ekish va uning afzalliklari: To'qsonbosti uslubida ekilgan sabzavot ekinlari urug'lari erta ko'klamda yerdan juda barvaqt unib chiqib, tez rivojlanishi hisobiga erta hosil beradi. Takroriy ekinlardan bo'shagan dalalar obdon shudgorlanishi shart, shundagina "to'qsonbosti" ekinlar urug'i yerga "o'rnashadi". Qolaversa, urug' yetarli chuqurlikka tushsagina, qishki qattiq sovuq ta'siridan omon qoladi. Sabzavot urug'lari ekilgan egatlar ustidan chirigan mahalliy o'g'itlar yoki daraxt qipiqlari bilan mulchalash yoki shaffof pylonka bilan qoplansa, urug'lar yog'in, havodagi namlik ta'sirida asta-sekin bo'rtadi va sovuqqa chiniqadi. Bu usul erta bahorda havo harorati noqulay, past bo'lishiga qaramay unib chiqqan maysalarning jadal o'sib-rivojlanishini ta'minlaydi. Natijada erta bahorda ekishga qaraganda hosil yetilishi **25-30 kungacha ertaroq, hosildorligi esa 15-20 foizga** ortiqroq bo'ladi. Kech kuzda sovuq va namgarchilik boshlanmasdan oldin to'qsonbosti usulida ekish uchun noyabr oyining oxiri dekabr oyining birinchi dekadasida sovuqqa chidamli sabzavot ekinlaridan sabzi, piyoz, osh lavlagi, ko'kat sabzavotlar (ismaloq, ukrop, petrushka, selderey, kashnich, salat) ekinlarining urug'lari sepiladi. To'qsonbosti qilib sepiladigan

sabzavot urug‘lar sarfi 20% gacha ko‘proq bo‘lishi kerak. Qolaversa, yuqorida aytilganiday, urug‘ yerga kerakli me’yorda tushishi: no‘xat 8 santimetr, kartoshka 10-15 santimetr chuqurlikda ekilishi lozim. Sabzi, sholg‘om, turp, lavlagi va boshqa ildizmevalilar urug‘i yuzasini 4-5 santimetr qalinlikda tuproq bilan ko‘mish va ustiga organik qoldiqlar sepib qo‘yish yaxshi samara beradi. Bu muddatda sepilgan sabzavot ekinlarining urug‘lari qish mavsumida unmaydi, qishki yog‘ingarchiliklar natijasida urug‘lar tuproqdagi namlikka to‘yinadi va havo harorati 4-50 C bo‘lganda ko‘klamda barvaqt begona o‘tlar urug‘laridan oldin yer nami bilan unib chiqsa boshlaydi. Harorat 18-200 C bo‘lganda to‘liq unadi, kuzda ekilgan sabzi, piyoz va lavlagining barglari ko‘klamda ekilganiga qaraganda 1,5-2 baravar katta bo‘lib, hosil 25-30 kun oldin yetiladi hamda hosildorligi gektaridan 14-15% gacha yuqori bo‘ladi. Bunda ushbu ekinlarning erkaklab ketmaydigan navlarini ekish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Respublikamizning ob-havo va tuproq sharoitiga qarab har bir viloyat uchun yangi rayonlashtirilgan, mo‘l hosilli, sifat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan, zararkunanda va kasalliklarga chidamli, mexanizmlar yordamida ishlov berishga moslashgan, har bir ekish muddati uchun mos navlarni to‘g‘ri tanlash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “Sabzavot ekinlarini to‘qsonbosti muddatda yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar” - AGRO.UZ
2. X.N. Atabayeva, J.B. Xudayqulov "O‘simlikshunoslik". —T.: «Fan va texnologiya» 2018
3. O.Yaqubjonov, S.Tursunov. O’simlikshunoslik (amaliy mashg‘ulotlar). T., «Fan va texnologiya», 2008
4. Ostonqulov T.E., Qodirxo‘jayev O.K Sabzovotchilik. Qishloq xo‘jaligi oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. — T.: 2009.
5. Рашидов К.Т., Беда экиш муддатларининг дон ва кўк масса ҳосилдорлигига таъсири “Tadqiqotlar” jahon-ilmiy metodik jurnali 24-son to‘plami 33-36 betlar